

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING SIYOSIY JARAYONLARDAGI
O‘RNINI YANADA MUSTAHKAMLASH AHAMIYATI**Doniyorbek Erkinjonov,**

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining
Markaziy apparati Xodimlarni boshqarish guruhi rahbari
e-mail: d.erkinjonov953@gmail.com
Tel.: 90 931-33-00

Annotatsiya.

Maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarining siyosiy jarayonlardagi ishtiroki tahlil etilgan. Muallif yoshlarni nafaqat jamiyat va mamlakat hayotida muhim subyekt sifatida, balki siyosiy jarayonlarda o‘ziga xos maqomga ega ekanligini kursatib o‘tgan. Maqolada xalqaro tajribadan kelib chiqib yoshlarni siyosiy jarayonlardagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan bir qancha takliflar bildirilgan.

Аннотация.

В статье анализируется участие молодёжи Нового Узбекистана в политических процессах. Автор указал на то, что молодёжь является не только важным субъектом в жизни общества и страны, но и имеет особый статус в политических процессах. В статье на основе изучения международного опыта представлены ряд предложений по укреплению места молодёжи в политических процессах.

Annotation.

The article analyzes the participation of young people of New Uzbekistan in political processes. The author has shown that young people have a special status not only as an important subject in the life of society and the country, but also in political processes. The article made several proposals to strengthen the position of youth in political processes based on international experience.

Kalit so‘zlar: yoshlar, davlat boshqaruvi, siyosiy jarayonlar, saylov jarayoni, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platforma, innovatsion g‘oyalar.

Ключевые слова: молодёжь, государственное управление, политические процессы, избирательный процесс, молодёжные организации, социальные сети, цифровая платформа, инновационные идеи.

Key words: youth, public administration, political processes, electoral process, youth organizations, social networks, digital platform, innovation ideas.

Kirish. Ma’lumki, yoshlarni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish maqsadida Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentyabrdagi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun** hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining eng muhim omili yoshlarga qaratilgan e’tiborda ekanligini davlatimiz rahbari va hukumati yaxshi tushunadi.

Mamlakatni yangicha uslubda modernizatsiya qilish, iqtisodiy rivojlantirish, jamiyatda ochiqlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun turli sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlarni bajarilishida yoshlarning siyosiy jarayonlardagi o'zni muhim o'rin tutadi va hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi, shu bilan birga mamlakatning kelajagini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Aytish joiz, yoshlar har bir jamiyatning eng faol, harakatchan va innovatsiyalarga moyil qatlami hisoblanadi. Siyosiy jarayonlarda yoshlar ishtirokining ortishi, nafaqat mamlakatdagi siyosiy tizimning barqarorligiga, balki demokratiyani mustahkamlash va ijtimoiy o'zgarishlarga ham katta hissa qo'shishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda dunyo aholisining beshdan bir qismini yoshlar tashkil etadi. Ularning katta qismi rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ri keladi. Mazkur avlod vakillari tabiiy resurslardan foydalanish cheklanganligiga, ta'lim, bandlik va keng iqtisodiy imkoniyatlar kabi muammolarga duch kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlar siyosiy jarayonlarda ishtirok etishlari uchun avvalo siyosiy bilim va madaniyatga ega bo'lishlari lozim. Siyosiy jarayonlar, qonunchilik va davlat boshqaruvi to'g'risidagi bilimlar yoshlarning siyosiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning ba'zilar siyosiy lider sifatida ko'zga tashlanishadi va jamiyatdagi yetuk muammolarni hal etishda faol ishtirok etadilar. Bunday liderlar siyosiy harakatlarni tashkillashtirishda va boshqarishda muhim rol o'ynaydilar.

Shu sababli, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularda demokratik qadriyatlarning shakllanishi, mamlakatning kelajakdagi rivojlanishida va siyosiy barqarorlikni ta'minlanishida yoshlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot o'rnida, O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Davlat statistika qo'mitasining 2024-yil 9 oylik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi 14-35 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni taxminan 11 million kishidan ortiq bo'lib, bu umumiy aholining 30 foizga yaqin qismi yoshlar ekanligini anglatadi³⁸.

Siyosiy jarayonlarda yoshi 40 yoshdan oshmagan bo'lsa, yosh deb ko'rsatiladi. Partiyalarning dasturlarida "35 yosh" yoshlar deb keltiriladi. Aksariyat xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), shuningdek, demokratik boshqaruv jarayonlarida qatnashadigan tashkilotlarda hozirgi kunga kelib 40 yosh deb ko'rsatilmog'da. Yoshlar va yosh fuqarolarga bir xil guruh sifatida qaramasligi lozim. Misol uchun, axborot asrida tug'ilgan yoshlarga "raqamli avlod" sifatida qaralmoqda. Biroq, ular ko'pchilikni tashkil etmasada, dunyoning janubidagi yoshlarni bu toifaga kiritish noto'g'ri. Xususan, Afrikaning Sahroi Kabiridan janubiy va janubiy-sharqiy qismida yoshlarning **20 foizidan ortiq qismi hatto o'qish va yozishni bilmaydi**, shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi savodxonlikdagi tafovut yildan-yilga sezilarli o'sib bormog'da.

Xalqaro hamjamiyat yoshlarning **davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlardagi ishtirokini muhim** deb hisoblaydi. Jumladan, ushbu e'tirof BMTning bir qator rezolyutsiyalarida o'z ifodasini topgan. BMTning Taraqqiyot dasturida yoshlarga ijtimoiy-

³⁸ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

transformativ kuch sifatida qaralgan va ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirishga ko‘maklashish maqsad qilingan.

Saylov jarayoni davomida yoshlarning siyosiy faolligini oshirish ham muhim hisoblanadi. Yoshlar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi munosabatlar, faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalar o‘rttirishga xizmat qiladi. Saylov jarayonlari tugashi bilan fuqarolar o‘zlari saylagan vakillar faoliyatini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Muloqot qilish va targ‘ibot yo‘llari barcha fuqarolar, jumladan, yoshlar uchun ham ochiq bo‘lishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston yoshlarni siyosiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirish bo‘yicha ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Siyosiy jarayonlarda yoshlarning o‘rnini yanada mustahkamlash maqsadida turli yoshlarning tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, **“Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar ittifoqi”**, barcha darajadagi **hokimlarning yoshlar masalasi bo‘yicha o‘rinbosari** hamda davlat tashkiloti va unga tenglashtirilgan tashkilotlardagi **yoshlar yetakchilari** orqali yoshlar o‘z muammolarini, takliflarini davlat darajasida ko‘tarish imkoniga ega bo‘lyapti.

Xususan yuqori turuvchi organ Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yosh deputatlari soni 10 nafarni tashkil etmoqda, 2024-yil 27-oktyabrda o‘tkaziladigan saylovlarda 60 nafar yoshlar deputatlikka nomzod sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, 2020-yilda Senat va Qonunchilik palatasi huzurida Yoshlar parlamenti tuzilgan. Ular yoshlar manfaatlarini himoya qilish va davlat siyosatiga yoshlarning ta‘sirini oshirish maqsadida faoliyat olib bormoqda.

Davlat boshqaruvidagi rahbarlar bo‘yicha 2023-yilda o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, 21 nafar vazirdan 8 nafari (38 foizi) – 35 yoshdan 45 yoshgacha, 5 nafari (24 foizi) – 46 yoshdan 50 yoshgacha, 3 nafari (14 foizi) – 51 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan³⁹. Mahalliy hokimiyat organlarining tarkibi ham sezilarli darajada yangilangan. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqot O‘zbekistonda hokimlarning o‘rtacha yoshi 46 yoshni tashkil etishini ko‘rsatgan. Jumladan, Prezident yordamchisi, Spiker o‘rinbosari, Maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi vaziri, BAAdagi elchi, Yoshlar agentligi direktori, Turizm qo‘mitasi raisi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi rahbari, Innovatsiyani rivojlantirish agentligi direktori va boshqalar. Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotlarida tutgan o‘rni ham katta ahamiyatga ega. Bunday tashkilotlar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, ularni tadbirkorlikka o‘rgatadi va ijtimoiy faoliyatga jalb qiladi.

Shu bilan birga, hozirda 6 ta tijorat banklarining boshqaruv raisi, 5 ta tijorat banklaridagi boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosarlari **yosh rahbarlardan tashkil topgan**. Shuningdek, bank tizimida xizmat qilayotgan 27 nafar boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining yoshi hali 40 yoshga yetmagan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosiy jarayonlarda faol bo‘lib, ularning siyosiy va ijtimoiy ahamiyati ancha kuchaygan. Bunda ularning bilimli, zamonaviy axborot texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirganligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar yangicha fikrlashga moyil bo‘lgani sababli, ular siyosiy tizimda innovatsion yondashuvlarni olib

³⁹ https://yumh.uz/uzc/news_detail/604

kirmoqda. Shuningdek, yoshlar siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi va jamiyatni rivojlantirishdagi rolini tushunishlari uchun ularga siyosiy ta’lim berish, maktab va oliy o’quv yurtlarida siyosiy fanlarni chuqur o’rgatilishi, seminar va treninglar o’tkazish orqali ularning bilimini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, ular ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy jarayonlarga faol qatnashmoqdalar va o’z qarashlarini ifoda etmoqdalar. 2023-yilda o’tkazilgan tadqiqotlarga ko’ra, **yoshlarning 70 foizdan ortig’i siyosiy jarayonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib borgan**⁴⁰.

O’zbekistonda 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar orasida katta ijtimoiy faollik, tadbirkorlik va IT sohalariga qiziqish bo’lib, bu sohalar tez sur’atda o’sib bormoqda. 2023-yilda O’zbekiston yoshlar ishlari agentligi orqali yoshlar uchun 5 000 dan ortiq ish o’rni yaratilgan bo’lsa-da, yoshlar o’rtasida **ishsizlik darajasi past** deb bo’lmaydi. Xususan, 2022-2023-yillarda yoshlar o’rtasida ishsizlik 15-17 foizni tashkil etgan. Bu ko’rsatkich Qozog’istonda 7-8 foiz, Rossiyada 9-11 foiz, Yevropa ittifoqida 30 foiz, AQSHda esa 7-8 foizni tashkil etadi⁴¹.

Shu bilan birga, **ayrim qiyinchiliklar ham ko’zga tashlanadi**. Ayrim yoshlar siyosiy jarayonlarga befarqlik bilan qarashadi yoki ularning ishtirokini chegaralab turgan omillar mavjud. Bu – siyosiy bilim yetishmasligi, moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi va ayrim hollarda davlat tuzilmalarida byurokratiyaning mavjudligidir. Shu sababli, yoshlar ishtirokini kengaytirish uchun ularning siyosiy madaniyatini oshirish, ko’proq imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O’zbekiston yoshlarining siyosiy jarayonlardagi ishtiroki mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Binobarin, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev “Yangi O’zbekistonni albatta sizlar bilan, butun mamlakatimiz yoshlari bilan birga barpo etamiz”⁴² deganlar. Yoshlar faolligi siyosiy tizimning demokratik rivojlanishini ta’minlaydi hamda mamlakatni zamonaviylashtirish jarayonida asosiy kuch sifatida namoyon bo’ladi. Davlat tomonidan yoshlarning siyosiy jarayonlarga jalb etilishi va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bu boradagi muvaffaqiyatlarni yanada oshiradi. Bundan tashqari, davlat siyosati yoshlarning muammolari va manfaatlarini inobatga olishi zarur. Yoshlar ta’lim, ish bilan ta’minlash, sog’liqni saqlash kabi sohalarida o’z talablarini davlat organlariga yetkazish imkoniga ega bo’lishlari kerak. Shu sababli, yoshlarimizni barcha jabhalarda qo’llab-quvvatlash Yangi O’zbekistonimizning mustahkam poydevori desak mubolag’a bo’lmaydi.

Takliflar. Yoshlarni siyosiy jarayonlarda faol qatnashishga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu ularning kelajagi va jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko’rsatadi. Xususan, amalga oshiriladigan ishlar yoshlarning qiziqishlariga mos keluvchi va ularni ilhomlantiruvchi formatlarda bo’lishi kerak. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda o’quv va tarbiyaviy dasturlarga alohida e’tibor beradi. Masalan, **Skandinaviya davlatida** yoshlar maktabdan boshlab fuqarolik mas’uliyati, davlat

⁴⁰ <https://oyina.uz/storage/publications/December2022/kp8LLP7CQqMcpmkSXUIE.pdf>

⁴¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1954>

⁴² <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekistonni-albatta-sizlar-bilan-butun-mamlakatimiz-yoshlari-bilan-birga-barpo-etamiz>

boshqaruvi va siyosiy jarayonlar haqida bilim oladilar. Shu sababli, O‘zbekistonda ham o‘rta maktab va oliy o‘quv yurtlarida fuqarolik ta’limi dasturlarini kengaytirish, yoshlarni siyosiy jarayonlardagi mas’uliyatni tushunishga o‘rgatish lozim.

Shuningdek, AQSH, Kanada va Yevropada yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda **raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn so‘rovnomalar muhim rol o‘ynaydi**. Yoshlar uchun mos keladigan zamonaviy vositalar orqali ularning fikr-mulohazalarini to‘plash, siyosiy jarayonlarga qo‘shish va ularni yoshlarga tushunarli usulda yetkazish samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘plab rivojlangan davlatlarda yoshlar uchun maxsus liderlik dasturlari tashkil qilinadi, bu dasturlar orqali yoshlar siyosiy liderlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, **AQSHda Prezident yoshlar kengashi** kabi tashabbuslar bor, bu yoshlarga siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashish imkoniyatini beradi. O‘zbekistonda ham shunday dasturlar orqali yoshlarning siyosiy iqtidorini rivojlantirish mumkin.

Shu bilan birga, yoshlarni siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari uchun qonunchilik darajasida ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish lozim. Masalan, saylovda ishtirok etish yoshi va huquqlari bo‘yicha **yoshlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar** kiritish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, yoshlar ko‘p hollarda raqamli dunyoda faol. Shuning uchun siyosiy jarayonlarga onlayn platforma va ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilish samarali bo‘ladi. Masalan, **onlayn ovoz berish**, onlayn muhokamalar o‘tkazish kabi vositalarni keng qo‘llash. Bu takliflar Yangi O‘zbekiston yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va jamiyatdagi rolini kuchaytirishga yordam beradi.

REFERENCES:

1. Sh. Mirziyoyev – O‘zbekiston yoshlariga tabrigi. Yangi O‘zbekiston gazetasi sayti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti. www.stat.uz
3. “Yuksalish” sayti. www.yumh.uz
4. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami, 2019.
5. X.R. Xaydarova – Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari (monografiya), 2022. – 148 b.
6. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi sayti.